

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA BO'YICHA YO'RIQCHINING ISH FAOLIYATI**

*Jizzax shahar 32-son DMTT Jismoniy tarbiya yo'riqchisi*

***Pirnazarova Nafosat Jurakulovna***

*Jizzax shahar 33-son DMTT Jismoniy tarbiya yo'riqchisi*

***Ochilova Gulandon Odil qizi***

***Annotasiya.*** Ushbu maqolada maktabagacha ta'lif tashkilotlarining jismoniy tarbiya yo'riqchisi ish foliyati haqida yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** Yo'riqchi, tarbiyachi, direktor, jihozlar, inventarlar, ish jihoz va anjomlar.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning jismoniy tarbiyasi barcha xodimlar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi. Barcha xodimlar, MTT direktoridan tortib, to texnik xodimgacha hammasi har bir bolaning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash hamda jismoniy tarbiyaning boshqa vazifalarini hal qilishga da'vat etilgandir.

MTT direktori jismoniy tarbiyaga doir barcha ishlarni tashkil etish uchun javobgardir. U umumiy ish reja tuzadi, zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi, jismoniy tarbiya vazifalarini hal qilishda MTT xodimlarining faoliyati ustidan rahbarlik va nazorat o`rnatadi. Umumiy ish rejasi barcha jamoa ishtirokida tuziladi. «Jismoniy tarbiya» bo`limida kirib kelayotgan yilning asosiy vazifalari qayd qilinadi, o`tkazilishi lozim bo`lgan tadbirlar ko`rsatiladi, ularni o`tkazish uchun zarur bo`lgan tayyorgarlik nazarda tutiladi. Masalan, bolalarni konkida uchish, basketbol, tennis, kurash tushishga o`rgatish kabi vazifalar qo`yiladi. Shunga muvofiq: kon'ki, kerakli kiyim-kechaklarni olish, tarbiyachilar (adabiyotlarni o`rgatish, o`rgatish metodikasini ishlab chiqish) ni, bolalar (ularda zarur jismoniy sifatlar va boshqalarni rivojlantirish) ni, ota-onalar bilan ishslash (oyoq kiyimi, kostyumlar, jihozlar) ni tayyorlash belgilab olinadi.

MTT direktori jismoniy tarbiya zali, maydonchalar, guruh xonalari

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

va maydonchalarни jihozlashni ta'minlshga majburdir: jismoniy tarbiya jihozlari, atributlar, o`yinchoqlar olishi; bino va maydonchalarda sanitariya-gigiyena holatiga rioya qilinishini kuzatish; metodika kabineti uchun adabiyot va materiallarni tanlash haqida g`amxo'rlik qilishi lozim. MTT direktori jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, ertalabki gimnastika, sayrlarni harakatli o`yinlarni o`tkazilishini kuzatadi va tahlil qiladi. Pedagogik jamoaning malakasini oshirish uchun mudira ochiq mashg'ulotlar konsultatsiyalar tashkil etadi. Ilg'or ish tajribasini umumlashtirishga yordam beradi. MTT direktori yosh mutaxassislarga alohida e'tibor berishi; kun sayin mahoratni egallab borishlariga, har bir ish kuniga puxta tayyorlanishlariga, usul va metodlardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatadi. Jismoniy mashqlar va boshqa tadbirdarni o`tkazishga otaonalarni faol jalg qila bilishlariga yordam berib boradi.

MTT uslubchisi (8-12 guruhli) bolalarning jismoniy tarbiyasi bo'yicha tarbiyachilarining ishiga bevosita metodik rahbarlikni uslubchi amalga oshiradi. Tarbiyachilarни malakasini oshirish va ularning ishini nazorat qilishda ko`rsatib o`tilgan tadbirdardan tashqari, u metodika kabinetini zarur adabiyot va hujjatlar; yosh guruhlari bo'yicha jismoniy mashqlarni taqsimlash jadvalari; yillik reja grafiklar, haftalik rejalar, turli yosh guruhlari bolalari uchun jismoniy tarbiya bo'yicha ishning har-xil shakllarining reja-konspektlari; bolalarning jismoniy tayyorgarligini hisobga oladigan jurnallar; jismoniy mashqlar texnikasi va ularni o`tkazish metodikasini rasmlar, suratlar orqali tasvirlaydigan albomlar; ota-onalar uchun materiallar; adabiyot ro`yxati, bolalar kiyimlarining chizmalari, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va boshqalar haqidagi ma'lumotlarni o`zgartirib yozib borishga moslashtirilgan ko'chma burchaklar bilan boyitishga katta e'tibor beradi. U guruh tarbiyachilarning ishini o`rganadi, rejalaشتirish va hisobga olishga doir hujjatlarni tahlil qiladi, shuningdek jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, ertalabki gimnastika foydalaniladigan ish shakllarini kuzatib boradi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Kuzatish jarayonida u tarbiyachilarning tushuntirishlari, ko`rsatmalari, komandalari, buyruqlarini yozib boradi, ular o`tkazgan jismoniy mashqlarning sifatini belgilaydi, dozasini yozib boradi va xronometraj yuritadi. Bundan tashqari, u harakatni bolalar tomonidan sifatli bajarilishi, ularning o`zini his qilishi va xulqini ko`rsatib o`tadi. Bu ma'lumotlardan mashg`ulotlarni tahlil qilish va baholash, shuningdek, aniq tavsiyalarni tuzishda ham foydalaniлади. MTT uslubchisi ishdagi ijobjiy tajribani o`rganish va uni yoyish ishiga katta e'tibor beradi; ochiq mashg`ulotlar o`tkazish va ularni muhokama qilishni tashkil etadi, tarbiyachilarga o`z ish tajribasini umumlashtirish. Pedagogik o`qishlarga nutqlar tayyorlab, so`zga chiqishga tayyorlanishda yordam beradi. Jismoniy tarbiya yo`riqchisi bolalar bilan jismoniy tarbiya ishini bevosita tarbiyachi olib boradi. U nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo`lishi, o`z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi lozim. MTT oldida turgan jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiyachi dastur mazmuni va talablarini o`rganishi shart, bolalar bilan ishslashning barcha shakllari; jismoniy tarbiya mashg`ulotlari, ertalabki gimnastika, harakatli o`yinlar va boshqalarni savodli o`tkaza bilishi, shuningdek, ishni rejulashtirish va hisobga olish bo`yicha hujjatlarni to`g`ri rasmiylashtira olishi zarur. Jismoniy mashqlarni o`tkazishda jismoniy tarbiya murabbiysi quyidagilarni harakatlarni to`g`ri va aniq tushuntirish va ko`rsatishni, komanda va farmoyish berishni; ta'limning xilma-xil usullaridan foydalanishni, xatolarning oldini olish va tuzatishni; bolalarga yordam berish va xavfsizlikni ta'minlashni; talabchanlikni bolalarga e'tiborli bo`lishni va g`amxo'rlik ko`rsatishni, pedagogik odobga rioya qilishni bilishi; bolalarning o`zini xis qilish (bolaning rangiga, terlashi, nafas olishiga qarab) ni, ularning diqqati (barqarorligi, tarqoqligini, mashg`ulotlarga qiziqish (qiziqishning kamayishi, bir joyda o`tira olmasligi, ortiqcha harakatchanligini)ni; faolligi (faolligini pasayishi, ish-harakatlaridagi passivlik, jismoniy mashqlar bajarishdan bosh tortishi) ni, shuningdek, jismoniy tarbiya mashqlarining bajarilish sifati (uyg`unlik, ritmnинг

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

buzilishini, harakatlar tezligi va aniqligining pasayishi, qaddi qomati buzilishi va boshqalar) ni kuzatish lozim. Yo‘riqchi bino va uchastkada gigiyenik sharoitlarga rioya qilinishini, jismoniy tarbiya jihozlari, inventarlari, atributlar, o`yinchoqlarining tozaligi va yaxshi saqlanishini kuzatib turishga; otaonalar va bolalar bilan birgalikda qor uyumlari, tepaliklari, inshoatlari (poroxod, ayiq...) vujudga keltirishga, muzli yo`llar,sirpanchiqlar yasash, sakrash uchun qumli chuqur, yugurish uchun yo`lkalar va boshqalarni tayyorlashga da`vat etilgandir. Tarbiyachi ota-onalar uchun suhabatlar, maslaxatlar, majlislar, ochiq eshiklar kuni, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlar tashkil etadi va o`tkazadi, bog‘chada ularning navbatchiliginи uyushtiradi. Jismoniy tarbiyani to`g‘ri tashkil etishda ota-onalarga ko‘rsatmali agitatsiya va yordam berish maqsadida tarbiyachi ko`rgazma-burchaklar, stendlar, o`z guruhi bolalarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi ma’lumotlari yozilgan ko`chma burchaklar, shirmalar tayyorlaydi. Bolalarga namuna bo`lish va jismoniy mashqlarni to`g‘ri ko`rsatish maqsadida tarbiyachi o`zining jismoniy tayyorgarlik darajasini muntazam ravishda umumiylar va mustaqil jismoniy tarbiya guruhlarida, sport seksiyalarida oshira borishi, musobaqa va boshqalarda ishtirok etishi lozim.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar:**

- 1.Djamilova N.Bolalar jismoniy tarbiysi. T.: 2020 yil
- 2.G.Tulenova. X.Xo‘jayev.P.Xo‘jayeva. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”. T.: Ilm ziyo 2012 yil
- 3.A.N.Normurodov “Jismoniy tarbiya“. O‘zbekiston.2011 yil
- 4.K.Mahkamjonov, R.Salomov, I.Ikromov “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi.T.” Iqtisod – Moliya 2008
- 5.R.Salomov va boshqalar. Maktabgacha yoshdagи bolalar jismoniy tarbiyasi uslubiyati asoslari. Vneshivestrom. 2010